

## XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941- yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,3 ming kv. km Chegara uzunligi 617,1 km Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (101,2 km), Namangan viloyati bilan (106,6 km), Qirg'iz Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km.ga 764 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 465,7 ming kishi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil 1- aprel holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 338,2 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 15,4 ming kishiga yoki 100,5 % ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 742,5 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 595,7 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.

### Doimiy aholi soni

**3 338,2** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**15,8** ming kishi

### Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

#### Shahar joylarda



**52,2 %**



**1 742,5** ming kishi

#### Qishloq joylarda



**47,8 %**

**1 595,7** ming kishi



## Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

2023- yil 1- aprel holatiga



## ANDIJON VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumotlar



**Doimiy aholi soni**

**3 338 150** kishi



**Tug'ilganlar soni**

**19 351** kishi



**O'lganlar soni**

**3 516** kishi



**Nikohlar soni**

**3 669** birlik



**Nikohdan ajralishlar soni**

**1 485** birlik



**Ko'chib kelganlar soni**

**1 509** kishi

*shundan, xorijdan*

**1** kishi



**Ko'chib ketganlar soni**

**1 916** kishi


*shundan, xorijga*

**31** kishi

**Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni  
to'g'risida ma'lumot**  
(2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumot)

	<i>Doimiy aholi soni, kishi</i>				
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkaklar</i>	<i>ayollar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 338 150</b>	<b>1 690 976</b>	<b>1 647 174</b>	<b>1 742 514</b>	<b>1 595 636</b>
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	470 486	237 031	233 455	470 486	-
Xonobod	45 235	22 604	22 631	38 360	6 875
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	189 987	96 059	93 928	99 641	90 346
Andijon	281 397	140 535	140 862	215 618	65 779
Baliqchi	212 232	108 240	103 992	70 932	141 300
Bo'ston	76 556	38 670	37 886	27 072	49 484
Buloqboshi	150 468	76 643	73 825	72 413	78 055
Jalaquduq	196 006	99 947	96 059	81 712	114 294
Izboskan	251 419	128 134	123 285	80 408	171 011
Ulug'nor	63 256	31 662	31 594	6 641	56 615
Qo'rg'ontepa	226 876	114 361	112 515	96 818	130 058
Asaka	349 117	176 545	172 572	107 805	241 312
Marhamat	183 271	93 537	89 734	144 129	39 142
Shahrixon	318 714	162 885	155 829	105 473	213 241
Paxtaobod	205 217	104 049	101 168	74 953	130 264
Xo'jaobod	117 913	60 074	57 839	50 053	67 860

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2023- yil 1- aprel holatiga, ming kishi)



### Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	2022- yil 1- aprel holatiga, kishi	2023- yil 1- aprel holatiga, kishi	O'tgan yining mos davrilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>3 268 357</b>	<b>3 338 150</b>	<b>102,1</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	460 688	470 486	102,1
Xonobod	44 189	45 235	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	185 598	189 987	102,4
Andijon	275 268	281 397	102,2
Baliqchi	207 904	212 232	102,1
Bo'ston	75 050	76 556	102,0
Buloqboshi	147 623	150 468	101,9
Jalaquduq	192 304	196 006	101,9
Izboskan	246 459	251 419	102,0
Ulug'nor	62 058	63 256	101,9
Qo'rg'ontepa	223 005	226 876	101,7
Asaka	341 683	349 117	102,2
Marhamat	179 580	183 271	102,1
Shahrixon	311 448	318 714	102,3
Paxtaobod	200 700	205 217	102,3
Xo'jaobod	114 800	117 913	102,7

### Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati

(yanvar - mart)


	<i>Kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	2022- yil	2023- yil	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	18 723	19 351	628	23,3	23,6
O'lganlar	3 540	3 516	-24	4,4	4,3
Nikohlar	4 521	3 669	-852	5,6	4,5
Ajralishlar	1 239	1 485	246	1,5	1,8
Ko'chib kelganlar	1 700	1 509	-191	2,1	1,8
Ko'chib ketganlar	2 054	1 916	-138	2,6	2,3

**Tug‘ilish.** 2023- yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 19 351 kishini tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga (18 723 kishi) nisbatan 628 taga ko‘paygan, Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 0,3 promilleda o‘sgan.




**Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsiyenti**  
2023- yil yanvar-mart davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

*Tirik tug‘ilganlar soni, kishi*



*Tug‘ilish koeffitsiyenti*  
(1000 aholiga nisbatan, promille)



**Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi**  
2023- yil yanvar-mart holatiga, kishi




	Jami	jinsi bo‘yicha		joyi bo‘yicha	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar	shahar	qishloq
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>19 351</b>	<b>9 955</b>	<b>9 396</b>	<b>10 215</b>	<b>9 136</b>
shaharlar:					
Andijon sh.	3 234	1 721	1 513	3 234	-
Xonobod sh.	243	124	119	243	-
tumanlar:					
Oltinko‘l	1 046	532	514	509	537
Andijon	1 659	846	813	1259	400
Baliqchi	1 185	611	574	278	907
Bo‘ston	426	228	198	178	248
Buloqboshi	758	397	361	333	425
Jalaquduq	1 110	579	531	414	696
Izboskan	1 420	758	662	424	996
Ulug‘nor	346	168	178	64	282
Qo‘rg‘ontepa	1 051	551	500	477	574
Asaka	1 966	963	1003	631	1 335
Marhamat	1 052	536	516	740	312
Shahrixon	1 866	954	912	674	1 192
Paxtaobod	1 236	631	605	462	774
Xo‘jaobod	753	356	397	295	458

2023- yil yanvar-mart davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 9 955 nafarni yoki jamidan 51,4 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 9 396 nafar va jamidan 48,6 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 10 215 nafarni (jamidan 52,8 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 9 136 nafarni (jamidan 47,2 %) tashkil etdi.

**Vafot etganlar.** 2023- yil yanvar-mart oylarida 3 516 mingta o‘lim kayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi.

## O‘limning sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

(yanvar-mart)



2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 71,8 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,6 % o‘smalardan, 3,3 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,0 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 4,0 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,8 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,5 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2023- yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 3 669 ta (o‘tgan yilning mos davrida 4 521 ta), ajrimlar soni 1 485 ta (o‘tgan yilda 1 239 ta)ga teng bo‘ldi. Qayd etilgan nikoh ko‘rsatkichi aholiga nisbatan 4,5 promilleni (2022-yilning tegishli davrida 5,6 promille) va ajrim ko‘rsatkichi 1,8 promilleni (2022 -yilning tegishli davrida 1,5 promille) tashkil etdi.


## Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar - mart)


(birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>4 521</b>	<b>3 669</b>	<b>1 239</b>	<b>1 485</b>
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	611	423	286	270
Xonobod	48	36	18	23
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	243	176	63	72
Andijon	296	223	111	141
Baliqchi	278	240	43	77
Bo'ston	98	68	33	35
Buloqboshi	251	215	53	66
Jalaquduq	313	228	60	83
Izboskan	417	341	91	117
Ulug'nor	64	50	17	28
Qo'rg'ontepa	229	247	61	95
Asaka	468	361	120	140
Marhamat	278	253	70	68
Shahrixon	420	385	105	133
Paxtaobod	367	304	70	97
Xo'jaobod	140	119	38	40





### Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-mart holatiga




Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Qo'rg'ontepa tumanida (0,2 promillega) kuzatildi.

Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Jalaquduq tumanida (1,9 promillega), Bo'ston tumanlari (1,7 promillega) va Andijon shaharda (1,7 promillega) kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni


(2023- yilning yanvar-mart oylarida, birlik)



Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sish Baliqchi va Ulug'nor, tumanlarida (0,7 promillega), Qo'rg'ontepa tumanida (0,6 promillega) ro'y berdi.

## Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti

(2023- yil yanvar-mart davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)





**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1 509 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 1 916 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus -407 kishini tashkil etgan, 2022- yilning mos davrida minus -354 kishi bo'lgan.

**Aholining migratsiya ko'rsatkichlari**  
(yanvar - mart)

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>

<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1 700</b>	<b>1 509</b>	<b>2 054</b>	<b>1 916</b>	<b>-354</b>	<b>-407</b>
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	457	361	496	439	-39	-78
Xonobod	51	65	29	48	22	17
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	134	125	120	78	14	47
Andijon	316	204	220	200	96	4
Baliqchi	69	49	91	121	-22	-72
Bo'ston	57	40	40	47	17	-7
Buloqboshi	51	34	78	86	-27	-52
Jalaquduq	78	60	148	145	-70	-85
Izboskan	4	21	137	126	-133	-105
Ulug'nor	9	17	35	34	-26	-17
Qo'rg'ontepa	62	117	129	144	-67	-27
Asaka	75	97	134	116	-59	-19
Marhamat	58	31	91	102	-33	-71
Shahrixon	45	58	133	102	-88	-44
Paxtaobod	94	44	105	67	-11	-23
Xo'jaobod	140	186	68	61	72	125

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.